

**EDGAR ALLAN PO IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARINING O‘ZBEK
TILIGA TARJIMALARIGA DOIR****Xalimov Saloxiddin Samiyevich**

Mustaqil tadqiqotchi, QarDU
O‘zR Harbiy xavfsizlik va mudofaa
Universitetining Harbiy aviatsiya
instituti, “Tillar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi E.A.Poning ijodiy faoliyati, ijodining takomilida sabab bo‘lgan omillar va asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, yozuvchi ijodida ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy va maishiy hayot to‘g‘risida ayrim xulosalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy realizmi, psixologik mahorat, adabiy-tanqidiy, magik realizm uslubi, ilmiy-ma’rifiy izlanish, mistik, syujetli hikoya

Annotation: This article discusses the creative activity of the author E.A. Po, the factors that led to the development of his work and the translation of his works into Uzbek. There are also some conclusions about the social and domestic life that influenced the author's work.

Keywords: critical realism, psychological skills, literary-critical, magical realism style, scientific-educational research, mystical, storytelling

Аннотация: В данной статье рассматривается творческая деятельность автора Э. А. По, факторы, обусловившие развитие его творчества и перевод его произведений на узбекский язык. Есть также некоторые выводы об общественной и бытовой жизни, повлиявшие на творчество автора.

Ключевые слова: критический реализм, психологическое мастерство, литературно-критический стиль, магический реализм, научно-педагогическое исследование, мистическое, повествование.

Edgar Allan Po (1809-1849) - Amerika tanqidiy realizmi va romantizmning yirik vakili bo‘lgan yozuvchi, adabiyotshunos, adabiy tanqidchi va san’at nazariyotchisi hisoblanadi.

“Edgar Poning asarlari, favquloda sirli-g‘aroyib syujetlardan tashkil topgan novellalari noshirlar uchun katta miqdorda moliyaviy foyda keltirgan. Ammo, nohaq ayblovlar, yetar-yetishmovchilik ichra yashash, sevimli go‘zal umr yo‘ldoshining bevaqt o‘limi tufayli adib telbavor holatlarda yurar, ichkilik va maishatga berilgan holda yashagan. Shunga qaramasdan, E.APo Amerika romantizmini yuqori cho‘qqiga ko‘targan, detektiv adabiyotni, psixologik mahorat va magik realizm uslubini

asoslagan yetuk nosir, ta'sirchan adabiy tanqidchi sifatida munosib adabiy obro' sohibidir¹".

Jahon adabiyoti tarixi, dunyo xalqlari madaniyatiga oid manbalar, Osiyo qit'asi xalqlari tarixi, musulmon olamining Muhammad Payg'ambar, umuman, dinlar rivoji, Chingizxon bosqini va unga qarshi jang qilgan, qudratli Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi jasur qahramonlar, adolatli hukmdorlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni shu o'quv dargohida, uning boy kutubxonasida topishgan. Balki, hali keyinroq o'n sakkiz yoshida katta e'tiqod va jasorat bilan buyuk Sohibqiron Amir Temur haqidagi mazmunder "Buyuk Temur" dostonini yaratish ishq va qat'iyati shu yuqori saviyali pansion bag'rida shakllangan bo'lsa ajab emas. Darhaqiqat, hali yoshligidanoq Edgar zehni o'tkirligi bilan o'z tengqurlari orasida ajralib turgan. Besh yoshligidan yoza boshlagan, rasmlar chizgan, she'rlarni ifodali o'qigan, hatto, ot minishni ham bilgan. Undagi o'ta qiziquvchanlik hayotni, uning sirli tomonlarini jozibali va ma'nomazmunini atroflicha o'rganish va o'zlashtirish imkonini bergan.

Edgar Po ba'zi asarlarida yoki maqolalarida, jumladan, "Vilyam Vilson" nomli hikoyasida o'zining yoshligi va maktab davrini Yelizaveta davri: katta salmoqli uy, doimiy tuman qoplagan qishlog'i, bu yerdagi eski-tuski uylar, juda ham qadimiy, katta-katta egri-bugri daraxtlar manzarasi bilan aloqadorligini eslaydi².

Romantikaga, ko'ngilochar faoliyatga moyil bo'lgan, hayotdagi turli toifa foydaparastlar va jinoyatchilar faoliyatini ham bilishga qiziqqan Edgar subutsiz tanishlari doirasida o'zini sinash uchun, ularning qilg'iliklarini o'rganish uchun beixtiyor qimroda hazil-hazillik bilan katta pul yutqazib qo'ygan edi.

Keyinchalik yigit yoshidagi Edgar ancha darbadarlikda hayot kechira boshlagan. Boyonlar oilasi Allanlar uyini tashlab ketib, o'zi uchun qadr don bo'lgan Boston shahriga boradi. Bu yerda u "Bostonlik" taxallusi bilan "Amir Temur va boshqa she'rlar" (1827) nomli she'riy to'plamini nashr ettirgan. Ma'lumotlarga binoan, uning 1831 yili yozgan "Elenga" nomli she'ri bo'lajak ulug' adibning birinchi asari hisoblangan.

Elen, sening chiroying menga
Eslatadi o'tgan kunlarni.
Bu bahr aro sarson-sargardon
Sening sunbul zulf ila yuzing³.

¹ Зарубежная литература XIX века. Романтизм. Хрестоматия. Под редакцией Я.Н.Засурского. составители А.Ф.Головенченко, Н.П.Козлова, Б.И.Колесников. москва, «Просвещение», 1976, стр. 416-417.

² Каранг: По Э.А. Полное собрание рассказов. Издание подготовленный А.А.Еспетратова, А.Н.Николюкин. Ответственный редактор : А.А.Есисоратова. –Москва: «Наука», 1970, стр.696. (Академик А.Х.Саидов таржимаси)

³ По Э.А. Эленга. Шеър. // По Э.А. Буюк Темур. Сўзбоши муаллифи ва масъул мухаррир: профессор Акмал Саидов. "Янги аср авлоди" нашриёти, Тошкент 2016, 54 бет.

Satrlar mazmunidan E.Poning naqadar nozik tuyg'ular shoiri bo'lganligini ham tasavvur qilish mumkin. She'rni ingliz tilidan Hamid Ismoilov o'zbekchaga tarjima qilgan bo'lib, u ilk marta "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida (1984 yil, 27 yanvar, №5) e'lon qilingan.

E.A.Po 1833-1840 yillarda "Janub adabiy axborotnomasi" jurnalida qator hikoyalari, she'rlari va ertaklari e'lon qilingan. Shu bilan birga, shu jurnalda Edgar Po adabiy-tanqidiy maqolalarini ham e'lon qilgan. U asosan V.Irving, F.Kuper, U.Brayant kabi AQSH adiblarining kitoblariga, CH.Dikens va Bulvar kabi ingliz yozuvchilarining romanlariga taqrizlar yozgan.

1848-yilda Edgar Poning hayotligidagi so'nggi kitobi – "Evrika" nashr qilingan. Edgar Poning o'zi "Evrika" asarini nasrdagi she'r deb hisoblaganiga qaramay, adabiy tanqidchilari esa buni ilmiy asar deb baholashgan. Darhaqiqat, Edgar Poning bu asaridagi ayrim kutilmagan XX asr tabiiy fanlarining buyuk kashfiyotiga olib kelgan. E.A.Po o'z navbatida yuksak olimlik, ilmiy-ma'rifiy izlanishlarda ma'lum iqtidor egasi bo'lgan. Bunday ilmiy tafakkur izlari adibning ba'zi asarlarida sezilib turadi.

Edgar Po 1849 yili Richmon shahri "Shoirlik tamoyillari" mavzuida qiziqarli ma'ruzalar o'qiy boshlagan. Shunday kunlardan birida Edgar Po Richmonddagi yonida 1500 dollar pul bilan chiqib ketgan. Keyin esa bu xalqparast adibni behush va hamyonsiz holda topishgan. Uni Baltimordagi shifoxonaga olib borishgan.

Edgar Allan Po 1849 yilning 7 oktabrida bu og'ir xastaligi oqibatida olamdan o'tgan. Ma'lumotlarga ko'ra, noma'lum bir kishi uzoq yillar E.Poning qabrini ziyorat qilib turgan. Taxminlarga ko'ra, bu ulug' yozuvchining iziga tushib yurgan va uning mast-alastligidan foydalanib, o'ldirgan-da, cho'ntagidagi pulini o'g'irlab ketgan. Bu hodisa E.Poga bag'ishlangan ayrim maqola, esse yoki xotiralarda ham qayd qilingan ekan.

E.A.Po yodnomalarida Virginiyadagi universitetda bir yil o'qigach: "Men yunonlarning ozodlik kurashida qatnashish uchun uydan qochganman. Gresiyaga yetib borolmasdan, Rossiyaning Peterburgiga borib qolganman. Piterburgdagi Amerika konsuli Genri Middeltonning iltifoti sabab bu yerdagi qiyin holatdan chiqib ketganman va 1829 yili uyga qaytganman..."⁴ deb yozgan ekan.

Edgar Po mashaqqatli, ammo, barakatli umr yo'llarini, notakror ijodiy izlanishlarni o'z taqdirida mujassam etgan yozuvchilardan sanaladi.

Akademik Akmal Saidov fikricha, Edgar Po novellalarini davr nuqtai nazaridan ikkiga ajratish mumkin. Birinchi davr – 1830 yillarni qamrab olgan bo'lib, 1840-yilda nashr etilgan "Grotesk va arabesk" nomli ikki tomlik hikoyalar to'plami bilan yakunlanadi. Bu davrga mansub asarlarga – fantastik va mistik uslubda yozilgan asarlar kiradi.

⁴ По Э.А. Буюк Темур. 11-12 бет.

Ikkinchi davr – 1840 yildan keyin yozilgan asarlar. Adib uchun bu davr romantik asarlar va yangi janr-detektiv uslubdagi hikoyalar yozish davri bo‘lgan”⁵.

Kutilmagan yechimlar, g‘aroyib manzaralar, favqulodda qiziq odamlar obrazini tasvirlash E.Po ijodining o‘ziga xos jihatlarini belgilaydi. Masalan, adibning “Doktor Tarr va professor Fetxer tizimi” (1845) nomli hikoyasida barchani aqldan ozgan deb hisoblovchi – aqldan ozgan jamiyat obrazi tasvirlangan. Bu bilan Edgar Po o‘zi yashagan jamiyatda o‘rnatilgan tartib va taomillarning bema’niligini fosh etishga harakat qilgan Edgar Poning nomi, yozuvchilik faoliyati O‘zbekistonda XX asr 20-yillaridan ma’lum bo‘lsa-da, adib o‘zbek elida 1962 yili (O‘zadabiynashr, Toshkent) “Tilla qo‘ng‘iz” nomli qissa hajmidagi hikoyasining alohida kitobchasi orqali nashr etilishi orqali ma’lum bo‘lgan.

Tarjimon Rustam Obidov Edgar Poning “Morg ko‘chasidagi qotillik” nomli sof detektiv ruhida hikoyasini o‘zbek tiliga qisqacha tarjimasini tuhfa etgan. Keyinchalik esa bu hikoya Ra’no Ibrohimova tomonidan to‘liq tarjima qilingan.

Edgar Po yuksak darajadagi psixologik mahoratli adib bo‘lib, ba’zi bir mistik, tushkun kayfiyatli mohiyatga ega hikoyalar ham yaratgan. Masalan, Ibrohim G‘afurov tarjimasi bilan e’lon qilingan “Saodat” jurnali, 1997, 3-son) “Legeyya” hikoyasi shunday asarlardan. Vafot etgan va morga saqlanayotgan sevgilisi Legeyya bilan ertalabgacha ruhan muloqot qilib chiqqan ma’shuqa iztiroblari, suyakli yorining o‘limini istamagan yigitning og‘ir ruhiy to‘lg‘onishlari mazkur asar mohiyatini belgilaydi.

Edgar Poning “Vaqt o‘rog‘i” va “Sukunat” kabi bir qator hikoyalari adib va adabiyotshunos Mahkam Mahmudov tomonidan, “Mashhurlikning intihosi” hikoyasi rus tilidan Dilshod Ulug‘murodov tomonidan, “Qora mushuk” va “Vaysaqi” hikoyalari ingliz tilidan Qandilat Yusupova tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Bu g‘aroyib adabiy uslubli yozuvchining asarlari, mahorat jozibalari o‘zbek nasrida va she’riyatida ham o‘zining notakror aks sadolariga ega. Bular inson erki va ma’naviyati uchun kurash, ruhiy olam manzaralarini jozibador uslublarda bera olish, fantastik realizm, sarguzashtlilik poetikasidagi izlanishlar, yovuzlik va olchoqlikning muqarrar jazoga giriftor bo‘lishi kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зарубежная литература XIX века. Романтизм. Хрестоматия. Под редакцией Я.Н.Засурского. составители
2. По Э.А. Полное собрание рассказов. Издание подготовленный А.А.Еспетратова, А.Н.Николюкин. Ответственный редактор :

⁵ По Э.А. Буюк Темур, 13 бет.

- А.А.Есисоратова. –Москва: «Наука», 1970, стр.696. (Академик А.Х.Саидов таржимаси)
3. По Э.А. Эленга. Шеър. // По Э.А. Буюк Темур. Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир: профессор Акмал Саидов. “Янги аср авлоди” нашриёти, Тошкент 2016, 54 бет.
4. По Э.А Буюк Темур. 11-12 бет.

